



# МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

*Илимий-методикалық журнал*

№ 5 2024



гуманитарные науки  
естественные науки  
технические науки

## PEDAGOGIK FAOLIYATDA KASBIY MADANIYATNING XUSUSIYATLARI

*Xudayqulova F.B.  
ChDPU,*

*“Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va amaliyoti” kafedra o‘qituvchisi*

**Tayanch so‘zlar:** kasbiy madaniyat, mutaxassis, sotsializatsiya, kompetentsiya, o‘z-o‘zini rivojlantirish, ijtimoiy va pedagogik daraja, pedagogic odoblilik, pedagogik mahorat.

**Ключевые слова:** профессиональная культура, специалист, социализация, компетентность, саморазвитие, социально-педагогический уровень, педагогическая порядочность, педагогическое мастерство.

**Key words:** professional culture, specialist, socialization, competence, self-development, socio-pedagogical level, pedagogical decency, pedagogical skills.

**Резюме:** Maqolada pedagoglarning kasbiy madaniyatini shakllantirish, ijodiy faoliyatga yo‘naltirish va kelajak shaxsini rivojlantirish, kasbiy madaniyatning xususiyatlari haqida fikrlar bayon qilinadi. Oliy ta‘lim muassasalarida kasbiy madaniyatni shakllantirish, bilim olish yo‘llari, individual, innovatsion rivojlanishga ehtiyoji bor talabalarni shakllantirish kabi tadqiqotlar haqida fikrlar mujassamlashgan. Kasbiy madaniyat o‘zining printsiplari, me‘yorlari va qadriyatlari bilan butun madaniyat jarayonining bir qismidir.

**Резюме:** В статье описывается формирование профессиональной культуры педагогов, ориентация на творческую деятельность и развитие будущей личности, особенности профессиональной культуры. В высших учебных заведениях заложены мысли о таких исследованиях, как формирование профессиональной культуры, способы получения знаний, формирование у студентов потребности в индивидуальном, инновационном развитии. Профессиональная культура с ее принципами, нормами и ценностями является частью всего культурного процесса.

**Summary:** The article describes the formation of the professional culture of teachers, orientation towards creative activity and the development of a future personality, and the features of professional culture. Higher education institutions have ideas about such studies as the formation of professional culture, ways of obtaining knowledge, and the formation of students' needs for individual, innovative development. Professional culture with its principles, norms and values is part of the entire cultural process.

Kirish. Talim taraqqiyotining ko‘p asrlik tarixiga nazar tashlanar ekan, unda ko‘plab maqsadlarning yakunini ko‘rish mumkin. Bu davrlarda rivojlanish,

jamiyatda ilmu fanning yuksalishi, buyuk ajdodlarning o'z ijodida erishgan yutuqlari tarix zarvaraqlarida muhrlanib qolganligi quvonarli holat.

XV asrda yashab, ijod etgan mutafakkir, Alisher Navoiyning yaqin do'sti Kamoliddin Husayn Voiz al-Koshifiy bola tarbiyasida maktab va muallimning alohida o'rni borligi haqida gapirib, muallimlar dono, bilimli, shirinsuxan, adolatli bo'lishi zarur, deb hisoblaydi. Alloma murabbiylar to'g'risida "Axloqi Muhsiniy" asarida shunday yozadi: "Murabbiy (bolaga) nasihat va ta'lim berishda lutf va odob qoidalariga rioya qilishi darkor.

Buyuk allomalardan Abdurahmon Jomiy o'z asarlarida tarbiyachi-muallim faoliyatiga quyidagicha ta'rif beradi: "Muallim bilimli, aqlli, adolatli, o'zida butun yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. O'zini nomunosib tutgan odam hech vaqt bolalarga bilim va odob bera olmaydi ". Ko'rinib turibdiki kasbiy madaniyat asrlar davomida faoliyatning asosiy qobig'i sifatida qaralmoqda.

Hozirgi zamon o'qituvchisi qanday ijobiy sifatlarga ega bo'lishi lozim degan savolga, o'qituvchilarning madaniy va maxsus tayyorgarligiga qo'yiladigan turli talablar bilan belgilanadi. Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash orqali mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarni, kasbiy bilimdonlik va o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojlari yuqori darajada shakllantirish zamon talabiga aylanmoqda. Kasbiy madaniyatni shakllantirishning an'anaviy shakllari oliy ta'lim dargohlarida bilim olishning reproduktiv usullari, kasbiy madaniyatni rivojlantirishning individual, innovatsion shakllarini rivojlantirishga ehtiyojning ko'pligi kelajakda kasbiy madaniyatning yuqori darajasiga o'sishiga yordam beradi.

Pedagogik nazokat o'qituvchiga muloqotni ijobiy hissiyotlar asosida qurishga, bolalar bilan psixologik kontakti saqlashga yordam beradi. O'qituvchi pedagogik nazokat talablariga amal qilib o'zida muloqotning demokratik uslubini shakllantiradi, o'quvchilar bilan haqiqiy muloqot madaniyatiga erishadi. Pedagogik nazokat o'qituvchiga bolalar bilan muloqotda konflikt (qarama-qarshilik)dan qochishga, o'zaro munosabatni to'g'ri kurishga yordam beradi. Takt so'zi ta'sir etish ma'nosini bildiradi. Bu kishilar o'zaro munosabatini boshqarishga yordam beruvchi axloqiy kategoriyadir. Taktik xulq insonparvarlik prinsipiga asoslanib, murakkab konflikt holatlarida ham kishiga hurmat saqlab qolishni talab qiladi. Nazokatli bo'lish barcha kishilarga qo'yilgan axloqiy talab, ayniqsa pedagoglarga bu juda muhim.

Pedagogik takt - bu o'qituvchining o'quvchiga maqsadga muvofiq pedagogik ta'sir o'lchovi, muloqotning maxsuldor uslubini o'rnatish ko'nikmasi. Pedagogik takt o'quvchilar bilan muloqotda oxirgi holatga (choraga) yo'l

qo'ymaydi. Hurmat erkalash va talabchanlikni ham talab etadi. O'quvchiga munosabat ularning yosh xususiyatlariga ham bog'lik bo'ladi. Kichik yoshdagi o'quvchilarga munosabatda o'qituvchi bolani kuchog'iga olishi, boshini silashi, erkalab chaqirishi mumkin.

Kasbiy madaniyatni "shakllantirish" pozitsiyasi kelajak o'qituvchisining kasbiy madaniyatiga yaqin, chunki kasbiy madaniyatni tartibga solish va tashkil etish kerak.

Umumiy o'rta maktablarda pedagoglarning kasbiy madaniyatini shakllantirishdan maqsad – o'z-o'zini rivojlantirish, ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan yuqori darajadagi kasbiy madaniyatga ega bo'lgan professional shaxsni tarkib topdirishdan iborat.

Darvoqe, pedagogik mahoratga, kasbiy madaniyatga loyiq mutaxassis chuqur bilimga ega bo'lishi, kasb va kasbiy muammolarni hal qila olishi ko'nikmasi rivojlangan bo'lishi lozim. .

Kasbiy madaniyatga ega bo'lgan pedagogning vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarni ta'lim faoliyatiga jalb qilish,
- ularning individual xususiyatlari va qiziqishlariga qarab rivojlanishini ta'minlash.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy madaniyatini pedagogik rivojlantirish modelini ishlab chiqish taqozo etadi. Kasbning o'ziga xos xususiyatlari va ma'lum bir ijtimoiy funktsiyaga yo'naltirilgan falsafiy qarashlari mavjud. Biroq, shubhasiz bitiruvchiga bilishi kerak bo'lgan shaxsiy fazilatlar o'rgatib borish dasturlarda belgilanishi darkor.

Kasbiy fazilatlarining modeli ikkiga bo'linadi;

- Umumlashtirilgan guruh
- Maxsus guruhlarga.

Umumlashtirilgan fazilatlar kasbiy tizimni yaratishni hisobga olish, qadriyatlar, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini rivojlantirish, kasbiy kompetentsiyani rivojlantirsa;

Maxsus fazilatlar esa motivatsion, intellektual, mazmunli, instrumental komponentlar, kasbiy o'zini-o'zi takomillashtirish fazilatlarini o'z ichiga oladi.

Kelajak pedagoglarining kasbiy madaniyatini shakllantirish jarayoniga asoslanishi mumkin bo'lgan uchta asosiy printsipl mavjud;

- yaxlitlik
- konvergentsiya (yaqinlashish, birlashish)
- individuallashtirish

Kasbiy faoliyat motivatsiyasini rivojlantirish 3ta manbani o'z ichiga oladi;

1. Ichki manbalar - insonning tug'ma va orttirilgan ehtiyojlari bilan belgilanadi.

2. Tashqi manbalar-shaxsning ijtimoiy hayot shart-sharoitlari va jamiyat tomonidan qo'yilgan talablarga javob berish bilan belgilanadi.

3. Shaxsiy manbalar - shaxsning qadriyatlar tizimi, g'oyalari, shaxsiy ehtiyojlarining namoyon bo'lishi bilan belgilanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish jarayonining maqsadi to'liq ta'lim berishdir. O'z faoliyati sohasida malakali va professional rivojlangan shaxsning tamoyillari yaxlitlik, madaniyatga "yaqinlashish", individuallashtirish turli darajalarda qo'llaniladi: shaxsiy, ijtimoiy, ijtimoiy-pedagogik, psixologik va pedagogik.

Kasbiy madaniyatni shakllantirish modeli bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish bo'yicha jamiyatning ijtimoiy tartibini aks ettiradi va shuningdek, maqsadlar, yondashuvlar, tamoyillar va mazmunlar samarali ishlashini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida zamonaviy ta'limning jadal rivojlanishi hayot sifatini yaxshilash uchun xizmat qiladi. Ta'limni tizimlashtirish bugungi kunda mutaxassislarining harakatchanligi va faolligini talab qiladigan raqobatni kuchaytiradi. Shuning uchun pedagoglar doimiy ravishda mehnat bozorida o'zining malakasini oshirib, uzluksiz ta'limda ishtirok etishi lozim.

Jamiyatning turli jabhalarida jumladan, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy sohasidagi o'zgarishlar pedagogik faoliyatni professional darajada sifatli o'zgartirishni va o'qituvchining yuqori harakatchanligi va ijodkorlikni talab qiladigan jarayondir.

Ta'lim tizimi zamonaviy o'qituvchidan o'quv jarayonini mukammal amalga oshirishni tubdan yangi bosqichga ko'tarishni xohlaydi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimi o'qituvchilarning kasbiy madaniyatini oshirish muammosini ochib beradi. Bundan ma'lumki, zamonaviy o'quvchilarga g'amxo'rlik qilish va malakali ta'lim berish, bugungi globallashtirish davrida juda ko'p vaziyat va hodisalarga moslashishga olib keladi.

Kasbiy madaniyatdan yuqori darajasi foydalanish yangi ta'lim mazmunini, jarayonini va ta'lim ishtirokchilarini to'liq rag'batlantirishga sabab bo'ladi.

Zamonaviy pedagogika fani "ommaviy axborot vositalari va zamonaviy globallashtirish dunyosining o'ziga xos xususiyatlarining butun majmuasiga e'tibor qaratadi. Shu bilan birga o'qituvchining kasbiy madaniyati mezonlari, qadriyatlari, motivatsiyasi, xulq-atvori normalari va o'qituvchilik faoliyatini shakllantirishning asosiy omillaridan biri bo'lib, uni ta'lim jarayoni sifatini oshirishning ajralmas qismiga aylantiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, o'qituvchining kasbiy madaniyati o'qituvchining umumiy madaniyati va pedagogik faoliyatning barcha sohalarida kasbiy mahoratining kombinatsiyasi hisoblanadi: ta'lim, murabbiylik, axloq va estetika, iqtisodiy, sotsiologik, boshqaruv va boshqalar bilan chambarchas bog'liq.

Raqamlashtirilgan va modernizatsiya qilingan bugungi jamiyatda kasbiy madniyat sifatini oshirish muammosi o'ziga xos ustuvor vazifaga aylanib bormoqda.

Bu doimiy rivojlanayotgan davlatning ta'lim tizimidagi o'zgarishlarga moslashish uchun yetarli darajada moslashuvchanlikni namoyon etadi. Umuman olganda ta'lim tizimida murabbiylik salohiyati oshirishga qo'yiladigan talablarga javob berish, hamda "raqamli dunyo" uchun mehnat bozorida mutaxassislarni yetkazib berishi kerak bo'lgan ta'lim dargohlariga juda taalluqlidir.

Ta'limni raqamlashtirish jamiyatda o'qituvchining roli va ahamiyatini oshiradi. Pedagogga madaniyatni targ'ib etuvchi shaxs sifatida qaraladi. Faqat pedagoggina tayyor bilimlarni kelajak avlod uchun sarflaydi, bola shaxsini shakllantiradi, rag'batlantiradi.

Xorijiy mamlakatlari pedagoglarining faoliyati o'quvchining shaxsiy rivojlanishiga turtki berishi barchaga ma'lum. Shunday ekan, pedagog ta'lim jarayonida murabbiylikni va motivatorlikni olib borsada barcha o'quvchilarni qamrab olishga majburdir. Pedagog xodimning muloqotchanlik darsjasi uning asosiy quroli hisoblanadi.

Ta'lim muassasalari xodimlarining muloqotchanlik madaniyatini rivojlantirishda quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- ta'lim dargohida faoliyat olib boruvchi xodimlarini, ya'ni psixologlar, pedagoglar, rahbar xodimlarni qo'shimcha ta'lim olishlari va o'z ustida ishlashni rivojlantirish;
- uzluksiz ilmiy va uslubiy seminarlarda ishtirok etish;
- turli jamoaviy tadbirlar yoki davra suhbatlarida nutq so'zlash;

Taqdim etilgan usullar o'quv jarayonida pedagogic texnologiyalarni qo'llash va kasbiy madaniyatni oshirish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan nazariy va amaliy materiallarni o'z ichiga oladi.

Kasbiy pedagogik madaniyatning muloqotchanlik komponenti nizolar bartaraf etishda, bolalar va ularning ota-onalariga, shuningdek xodimlar o'rtasidagi o'zaro sokin muhitni yaratishda, ijobiy hamkorlikka asoslangan faollikni shakllantiradi.

Bugungi kunda o'qituvchi zamonaviy dunyoning o'zgaruvchan muhitiga o'z vaqtida moslasha olish, murabbiylik va ta'lim jarayonining barcha



ishtirokchilari bilan muvaffaqiyatli va samarali hamkorlik qilish qobiliyatiga ega bo'lish, yangi psixologik, pedagogik bilimlarni o'zlashtirish talablariga javob berishi kerak. Axborot texnologiyalari, o'z ishiga nazariy va kontseptual asos bera olish lozim.

O'z navbatida, kasbiy o'sishga va pedagogik madaniyatni oshirishga bo'lgan talab natijasida, ilm-fan, texnologiya, raqamlashtirish va kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi kuzatilmoqda.

#### ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsesiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoni.
2. 2019 yil 11 iyuldagi «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4391-sonli qarori.
3. 2020 yil 6 noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli qarori
4. <http://www.marifat.uz/marifat/index>.
5. Махкамов, У., Жуманова, Ф., & Равшанов, Ж. (2020). Бўлажак ўқитувчиларни тарбиявий ишларини ташкил этиш ва бошқаришга тайёрлаш. *Academic research in educational sciences*, (3), 815-830.
6. Akramova, D. (2022). Bo'lajak pedagog-psixologlarning maktabgacha ta'lim tizimidagi faoliyati. *Science and innovation*, 1(B8), 322-326.
7. Akramova, D. (2022). Oliy ta'lim muassalari talabalarida pedagogikpsixologik moslashuvchanlikni mazmun mohiyati. *Science and innovation*, 1(B8), 2150-2153.
8. Abdieva, F. (2022). Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining boshqaruv madaniyatini takomillashtirish. *Science and innovation*, 1(B8), 2154-2156.
9. Ёзиева, У., & Абдиева, Ф. (2021). Maktabgacha ta'lim tashkiloti samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muammolari. *Общество и инновации*, 2(11/S), 111-114.

## КАР ВА ЗАИФ ЭШИТУВЧИ 5-7-СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ФУҚАРОЛИК КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ЛОЙИХА МЕТОДИДАН ФОЙДАЛАНИШ ЙЎЛЛАРИ

**Фозилов Б.З.**

*Анджсон давлат университети докторанти*

**Таянч сўзлар:** кар ва заиф эшитувчи болалар, фуқаролик компетенция, метод, технологиялар, дидактик воситалар, лойиҳа методи, мотивация.

**Ключевые слова:** глухие и слабослышащие дети, гражданская компетентность, метод, технология, дидактические средства, метод проекта, мотивация.

**Key words:** deaf and hard of hearing children, civic competence, method, technology, didactic tools, project method, motivation.

**Резюме:** Ушбу мақолада кар ва заиф эшитувчи 5-7-синф ўқувчиларининг фуқаролик компетенциясини шакллантиришда лойиҳа методидан фойдаланиш йўллари ҳақида маълумотлар ёритиб берилган.

**Резюме:** В данной статье освещается информация о способах использования проектного метода в формировании гражданской компетентности глухих и слабослышащих учащихся 5-7 классов.

**Summary:** This article highlights information on how to use the project method in the formation of civic competence of deaf and hard of hearing students in grades 5-7.

Ихтисослаштирилган мактаб ўқувчиларининг фуқаролик компетенциясини шакллантиришнинг методик тизимини такомиллаштириш масаласи таълимнинг умумий мақсад ва вазифалари билан узвийликда ҳал этилади. Фаол фуқаролик компетенциясини шакллантиришда қўлланилувчи методлар, технологиялар ва дидактик воситаларни танлашда айнан ахоборотлашган, глобал трансформация шароитига мос замонавий таълимнинг тамойиллари ва парадигмаларига таянилади. Чунки замонавий таълим шу давр ёшларини ўқитиш, тарбиялаш ва ижтимоийлаштириш мақсадини кўзлайди.

Бугунги кунда замонавий таълимда маҳсулдор таълимнинг фаол метод ва технологиялари кенг қўлланилмоқда. Масалан, муаммоли технология, амалий-фаолиятли методлар, ўйинли технологиялар. Шу каби методлардан бири бу лойиҳа методи.